

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	



YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of organizing tax control in the context of economic digitalization. The main purpose of the article is to substantiate ways to ensure the stability of budget revenues and reduce the share of the shadow economy by improving the effectiveness of tax inspections. The study provides a comparative analysis of the specific features of modern forms of tax control, including desk tax inspections, on-site tax inspections, and tax audits. The article puts forward scientific proposals for automating tax control processes, reducing the influence of the human factor, and developing trust-based relationships with taxpayers. The results of the study can be used to improve tax legislation and tax administration processes.

Keywords: tax revenues, tax system, tax risk, risk analysis, shadow economy, tax administration, risk-based approach, economic analysis, tax control, digital economy.

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq nazoratini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Maqolaning asosiy maqsadi — soliq tekshiruvlari samaradorligini oshirish orqali budjet tushumlari barqarorligini ta'minlash va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish yo'llarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot davomida soliq nazoratining zamonaviy shakllari bo'lgan kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada soliq nazorati jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalaridan soliq qonunchiligini takomillashtirish va soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, soliq tizimi, soliq riski, risk-tahlil, xufyona iqtisodiyot, soliq ma'muriyatchiligi, riskka yo'naltirilgan yondashuv, iqtisodiy tahlil, soliq nazorati, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические и практические основы организации налогового контроля в условиях цифровизации экономики. Основная цель статьи заключается в обосновании путей обеспечения стабильности бюджетных поступлений и сокращения доли теневой экономики за счёт повышения эффективности налоговых проверок. В ходе исследования проведён сравнительный анализ особенностей современных форм налогового контроля — камеральной налоговой проверки, выездной налоговой проверки и налогового аудита. В статье выдвинуты научные предложения по автоматизации процессов налогового контроля, снижению влияния человеческого фактора и формированию основанных на взаимном доверии отношений с налогоплательщиками. Результаты исследования могут быть использованы в процессе совершенствования налогового законодательства и налогового администрирования.

Ключевые слова: налоговые поступления, налоговая система, налоговый риск, анализ рисков, теневая экономика, налоговое администрирование, риск-ориентированный подход, экономический анализ, налоговый контроль, цифровая экономика.

KIRISH

Yirik korxonalarda moliyaviy operatsiyalar hajmining yuqoriligi, korporativ tuzilmaning murakkabligi, transfert narxlash mexanizmlarining qo'llanilishi, xalqaro operatsiyalar ko'lamining kengayishi hamda raqamli iqtisodiyot elementlarining jadal rivojlanishi soliq nazoratini tashkil etishga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Bunday sharoitda yuqori samaradorlikka faqat soliq tekshiruvlarini o'tkazish orqali emas, balki soliq risklarini oldindan baholash, ma'lumotlar tahliliga asoslangan profilaktik choralarini qo'llash va soliq komplaensini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Jahonning rivojlangan davlatlarida yirik soliq to'lovchilar bilan munosabatlar risklarga asoslangan nazorat, gorizontalar monitoring, raqamli audit va soliq komplaensi kabi zamonaviy instrumentlar asosida tashkil etilmoqda.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, yirik soliq to'lovchilar faoliyati ustidan samarali nazoratni tashkil



etish davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash, soliq intizomini mustahkamlash hamda iqtisodiyotda teng raqobat muhitini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik korxonalar uchun alohida soliq ma'muriyatchiligi institutlarini tashkil etish, raqamli audit texnologiyalarini joriy etish va risklarga asoslangan nazorat tizimlarini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (International Monetary Fund — IMF) ekspertlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda yirik soliq to'lovchilarni samarali ma'muriy boshqarish davlat budjetining barqaror daromad manbalarini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J. Shumpeter (2007) risklarni ikki turga ajratishni taklif qiladi: ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik nosozliklar bilan bog'liq risklar hamda tijorat muvaffaqiyatining yetarli darajada ta'minlanmasligi bilan bog'liq risklar.

A. K. Pokrovskiy (2011) riskning tarkibiy xususiyatlarini baholashda quyidagi jihatlarni e'tiborga olishni taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir, xavf to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar hamda risklarning o'ziga xos xususiyatlari.

Shvetsiyalik iqtisodchi olim K. F. Becker (2004) tomonidan xufyona iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilib, norasmiy iqtisodiyot bozor iqtisodiyotining to'liq nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlangan. Muallif ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlar rag'batlantirishning o'ziga xos shakllari asosida tovarlar ishlab chiqarishi va xizmatlar ko'rsatishini qayd etgan.

Aronov va Kashin (2004) o'z tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlar hamda Rossiya Federatsiyasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmlarini o'rgangan. Mualliflar soliq to'lashdan bosh tortuvchi soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlarini tahlil qilgan hamda soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishini rag'batlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan. Mazkur tavsiyalarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish amaliyotida qo'llanish imkoniyatlari ham asoslab berilgan.

Jalonkina (2012) tomonidan ilgari surilgan fikrlardan farqli ravishda, Toshmatov "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi asarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmlarini xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularning debitor va kreditor qarzdorliklarini qisqartirish hamda iqtisodiy faolligini oshirish orqali takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilarning soliq intizomiga rioya qilmaslik sabablari tadqiq etilgan, ularning soliqqa oid bilimlarini oshirish usullari tahlil qilingan hamda soliq to'lovchilarga davlatning hamkori sifatida xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kuznesovning (2016) fikriga ko'ra, soliq to'lovchi davlatning hamkori sifatida qaralishi lozim. Soliq organlari xodimlari tomonidan ushbu tamoyilning yetarlicha anganmasligi huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va soliq madaniyatini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Kalacheva esa soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish masalalarini tadqiq etib, soliq madaniyatining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar hamda ushbu sohadagi asosiy muammolarni aniqlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida yirik korxonalarda soliq nazoratining huquqiy asoslari va xorijiy mamlakatlar tajribasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan olimlar hamda ekspertlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, yirik korxonalarda soliq nazoratini tashkil etishning huquqiy jihatlari, mavjud muammolar va ularning oqibatlari, shuningdek, olimlar hamda ekspertlar tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar o'rganildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, umumlashtirish va ilmiy manbalarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan bo'lib, mazkur maqola matnini tayyorlash jarayonida tahliliy materiallarni tizimlashtirish va ayrim ilmiy ifodalarni takomillashtirish maqsadida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha foydalanildi. O'rganilgan ilmiy qarashlar asosida xufiyona iqtisodiyotning mamlakat milliy iqtisodiyotiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi davlat boshqaruvining barcha sohalari qatorida soliq ma'muriyatchiligi tizimi oldiga ham mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, milliy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatning katta qismini yaratayotgan hamda davlat budjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biri hisoblangan



yirik korxonalar faoliyati ustidan amalga oshiriladigan soliq nazoratining huquqiy asoslarini zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda. Soliq munosabatlarning murakkablashib borishi, transmilliy biznes modellarining kengayishi, raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar hajmining o'sishi hamda ma'lumotlar oqimining keskin ortishi soliq nazoratining faqat an'anaviy usullari bilan cheklanib qolish imkonini bermaydi. Shu bois huquqiy mexanizmlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, nazorat jarayonlarini risklarga asoslangan yondashuvlar orqali tashkil etish hamda soliq auditing institutsional asoslarini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yirik korxonalarda soliq nazoratining huquqiy asoslari nafaqat soliq qonunchiligi normalari, balki davlat boshqaruvi samaradorligi, tadbirkorlik muhitining barqarorligi, investitsiyalarni himoya qilish hamda davlat va biznes o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni ta'minlashga qaratilgan huquqiy institutlar bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan soliq nazoratining huquqiy tabiatiga faqat nazorat vakolatlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisi sifatida emas, balki davlatning moliyaviy manfaatlari va soliq to'lovchilarning qonuniy huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi kompleks huquqiy mexanizm sifatida yondashish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv soliq nazoratining profilaktik xususiyatini kuchaytirish, ma'muriy yuklamani kamaytirish hamda huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari mazkur sohaning huquqiy negizini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Soliq kodeksining yangi tahrirda qabul qilinishi, soliq organlari faoliyatini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni keng joriy etish, risklarni tahlil qilishga asoslangan soliq nazorati mexanizmlarini shakllantirish hamda soliq auditing huquqiy tartibini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yirik soliq to'lovchilar bilan ishlash tizimini tubdan yangilash uchun huquqiy zamin yaratdi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning raqamlashtirish sur'atlari yuqori bo'lib borayotganligi mavjud qonunchilikni zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga muvofiq ravishda muntazam takomillashtirib borishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda.

Jahon amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda yirik korxonalarga nisbatan qo'llaniladigan soliq nazorati umumiy nazorat tizimidan sezilarli darajada farq qiladi. Ko'plab mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilar uchun maxsus ma'muriy tuzilmalar tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyati risklarni baholash, doimiy monitoring, komplaens dasturlari, oldindan kelishilgan soliq pozitsiyalari, raqamli audit va ma'lumotlar tahlili kabi zamonaviy yondashuvlarga asoslanadi. Mazkur tizimlarning asosiy maqsadi tekshiruvlar sonini oshirish emas, balki yuqori soliq riskiga ega operatsiyalarni erta bosqichda aniqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda soliq majburiyatlarini bajarish darajasini oshirishdan iborat.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganishning ahamiyati ulardagi muayyan huquqiy normalarni mexanik ravishda milliy qonunchilikka ko'chirishda emas, balki turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan samarali institutsional yondashuvlarni milliy iqtisodiyotning xususiyatlari, huquqiy tizimi va soliq ma'muriyatchiligi amaliyoti bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlashda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) davlatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Singapur, Avstraliya, Kanada hamda Janubiy Koreyada yirik soliq to'lovchilar bilan ishlash bo'yicha shakllangan tajribalar milliy soliq nazorati tizimini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy manba hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida yirik korxonalarda soliq nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish faqat yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, huquqiy tartibga solish tizimi raqamli ma'lumotlar almashinuvi, sun'iy intellekt yordamida risklarni baholash, milliy soliq auditi rejasini shakllantirish, integratsiyalashgan axborot platformalaridan foydalanish hamda profilaktik soliq komplaensi mexanizmlari bilan uyg'un holda rivojlantirilishi zarur. Faqat shunday kompleks yondashuv orqaligina yirik korxonalarda soliq nazoratining huquqiy samaradorligini oshirish, davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash, soliq intizomini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan zamonaviy soliq ma'muriyatchiligi modelini shakllantirish mumkin.

Yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini tashkil etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, yirik soliq to'lovchilar faoliyati ustidan nazoratni tashkil etish jahon amaliyotida soliq ma'muriyatchiligining eng muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Buning asosiy sababi shundaki, yirik korxonalar davlat budjeti daromadlarining salmoqli qismini shakllantirishi bilan birga, ularning moliyaviy operatsiyalari ko'lamli, korporativ tuzilmasi, transchegaraviy bitimlari, transfert narxlash amaliyoti va soliq rejalashtirish strategiyalari ham ancha murakkab hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yirik soliq to'lovchilarga nisbatan umumiy nazorat usullaridan ko'ra ixtisoslashtirilgan, risklarga asoslangan, raqamli ma'lumotlar tahlili bilan qo'llab-quvvatlanadigan va komplaensga yo'naltirilgan soliq nazorati modellaridan keng foydalanilmoqda.

AQShda yirik soliq to'lovchilar bilan ishlash Internal Revenue Service (IRS) tarkibidagi Large Business and International Division (LB&I) orqali amalga oshiriladi. IRS ma'lumotlariga ko'ra, mazkur bo'linma "aktivlari 10 mln AQSh dollari va undan yuqori bo'lgan ichki va xorijiy biznes subyektlari"¹¹ bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini amalga oshiradi. AQSh tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, soliq nazorati faqat umumiy tekshiruvlar orqali



emas, balki *compliance campaigns*, ya'ni aniq riskli sohalar, operatsiyalar va soliq rejalashtirish sxemalariga qaratilgan maqsadli kampaniyalar asosida tashkil etiladi. IRS mazkur kampaniyalarni "strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, o'qitish, vositalar, metrikalar va qayta aloqa"²² bilan bog'liq tizim sifatida tavsiflaydi. Bunday yondashuv yirik korxonalarda soliq nazoratini mexanik tekshiruvdan tahliliy boshqaruvga o'tkazishga xizmat qiladi. Bunda nazorat resurslari barcha soliq to'lovchilarga bir xil taqsimlanmaydi, balki yuqori riskli segmentlarga maqsadli ravishda yo'naltiriladi.

Kanadada yirik soliq to'lovchilar nazorati Canada Revenue Agency (CRA) tizimidagi International and Large Business Audit Program orqali amalga oshiriladi. CRA mazkur dasturni "eng yirik va eng murakkab biznes subyektlarining daromad solig'i bo'yicha majburiyatlarga rioya etishini tekshirish"³³ga qaratilgan yo'nalish sifatida belgilaydi. Kanada tajribasida yirik biznes auditi ichki operatsiyalar, xalqaro faoliyat hamda soliqdan qochishga qarshi nazorat yo'nalishlarini qamrab oladi. Bunda nazoratning muhim jihati soliq to'lovchining umumiy korporativ tuzilmasi, xalqaro operatsiyalari va bog'liq shaxslar bilan munosabatlarini kompleks baholashdan iborat. Kanada modeli O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki yirik korxonalardagi soliq risklari ko'pincha alohida operatsiya doirasida emas, balki korporativ guruhlar, filiallar, xalqaro hisob-kitoblar va bog'liq shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi.

Avstraliya yirik soliq to'lovchilar ustidan soliq nazoratini tashkil etish bo'yicha rivojlangan modellardan biriga ega. Australian Taxation Office (ATO) tomonidan qo'llaniladigan *Top 100 Justified Trust Program* yirik kompaniyalar tomonidan "to'g'ri miqdorda soliq to'langanligiga ishonch hosil qilish"⁴⁴ maqsadida tashkil etilgan. Mazkur yondashuvning mohiyati shundaki, soliq organi faqat huquqbuzarliklarni aniqlash bilan cheklanmaydi, balki korxonaning ichki soliq boshqaruvi, soliq risklarini nazorat qilish tizimi, hisobotlar sifati hamda soliq pozitsiyalarining asoslanganligini ham baholaydi. Avstraliya tajribasida yirik soliq to'lovchilar bilan munosabatlar "ishonch, dalil va shaffoflik"⁵⁵ tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda yirik korxonalar uchun soliq komplaensi reytingini shakllantirish, soliq nazoratida ishonch darajasini baholash hamda audit chastotasini soliq risklari darajasiga bog'lash mexanizmlarini joriy etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Germaniya tajribasida yirik korxonalarda soliq nazorati huquqiy aniqlik, ichki soliq nazorati tizimi hamda soliq to'lovchining mas'uliyatli boshqaruvi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Germaniyada *Tax Compliance Management System* amaliyoti korxonalarning soliqqa oid ichki nazorat tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi¹¹. Xalqaro amaliyotda Germaniya modeli soliq huquqbuzarliklarini baholashda korxonada mavjud ichki soliq nazorati tizimining ahamiyati bilan ajralib turadi. Ya'ni, agar yirik korxonada soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha samarali ichki nazorat tizimi shakllantirilgan bo'lsa, bu soliq organlari uchun muhim baholash mezonlaridan biriga aylanadi²². Germaniya tajribasi O'zbekistonda yirik korxonalar uchun ichki soliq nazorati standartlarini ishlab chiqish hamda ularni soliq auditi jarayonida baholash mezonlari sifatida belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Fransiyada yirik korxonalar bilan ishlashda soliq ma'muriyati va biznes o'rtasidagi munosabatlarni shaffoflashtirish, soliq pozitsiyalarini oldindan muhokama qilish hamda korporativ soliq nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Fransiya tajribasida *cooperative compliance* elementlari rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, xalqaro tahlillarda mazkur mexanizmlarning ayrim yo'nalishlari hali to'liq institutsional shaklga ega emasligi qayd etiladi³³. Bu holat muhim xulosani keltirib chiqaradi: yirik korxonalar bilan ishlashda faqat tegishli huquqiy normalarni qabul qilish yetarli emas, balki soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida o'zaro ishonch, samarali ma'lumot almashinuvi, ichki nazorat standartlari hamda aniq javobgarlik mexanizmlarining o'zaro uyg'un ishlashi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, Fransiya tajribasi O'zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, *cooperative compliance* shaklidagi mexanizmlar formal xarakter kasb etmasdan, real ma'lumotlar almashinuvi hamda natijadorlikni baholash indikatorlari bilan ta'minlanishi lozimligini ko'rsatadi.

Yirik soliq to'lovchilar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanganligi sababli ularning faoliyatini nazorat qilish uchun alohida institutsional mexanizmlar shakllantirilgan. Rivojlangan mamlakatlarda mazkur tizimlar an'anaviy tekshiruvlarga emas, balki risklarni oldindan baholash, raqamli tahlil, korporativ soliq boshqaruvin rivojlantirish va soliq to'lovchilar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish tamoyillariga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan institutsional modellarni qiyosiy tahlil qilish O'zbekistonda yirik korxonalar ustidan soliq nazoratini takomillashtirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yirik soliq to'lovchilarni nazorat qilish tizimi, asosan, risklarni oldindan baholash va profilaktik boshqaruvga yo'naltirilgan. Jumladan, AQShdagi Internal Revenue Service tarkibidagi Large Business and International (LB&I) bo'linmasi soliq nazoratini maxsus *Compliance Campaigns* dasturlari orqali yuqori riskli sohalar va operatsiyalarga yo'naltiradi.



1-jadval

Xorijiy davlatlarda yirik soliq to'lovchilar nazoratining institutsional modellari

Davlat	Asosiy institut	Nazorat ob'ekti	Asosiy yondashuv
AQSh	IRS Large Business & International (LB&I)	Aktivlari 10 mln AQSh dollaridan yuqori bo'lgan biznes sub'ektlari	Compliance Campaigns dasturi va risklarga asoslangan audit
Kanada	CRA International and Large Business Audit Program	Yirik va xalqaro faoliyat yurituvchi biznes sub'ektlari	Xalqaro operatsiyalar hamda soliq xavflarini tahlil qilish
Avstraliya	ATO Top 100 Program	Eng yirik korporativ soliq to'lovchilar	Justified Trust konsepsiyasi va korporativ soliq boshqaruvini baholash
Germaniya	Tax Compliance Management System	Yirik kompaniyalarning ichki soliq nazorati tizimi	Ichki nazorat mexanizmlari va huquqiy aniqlikni ta'minlash
Fransiya	Cooperative Compliance modeli	Yirik biznes sub'ektlari	Soliq organlari va biznes o'rtasida hamkorlik hamda ishonchga asoslangan yondashuv

Kanada amaliyotida transchegaraviy operatsiyalar va transfert narxlash bilan bog'liq soliq risklari chuqur tahlil qilinib, tekshiruv resurslari eng yuqori risk darajasiga ega bo'lgan subyektlarga yo'naltiriladi. Mazkur yondashuvlar soliq nazoratining aniqligi va samaradorligini oshirish bilan birga, ma'muriy xarajatlarni qisqartirish imkonini ham beradi. Avstraliya, Germaniya va Fransiya tajribasida esa korporativ soliq boshqaruvini rivojlantirish hamda davlat va biznes o'rtasida o'zaro ishonch muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Avstraliyada *Justified Trust* konsepsiyasi orqali kompaniyalarning ichki soliq boshqaruvi tizimi baholanadi, Germaniyada esa ichki soliq nazoratining samarali tashkil etilishi huquqiy risklarni kamaytirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Fransiyada qo'llanilayotgan *Cooperative Compliance* modeli soliq organlari va yirik biznes subyektlari o'rtasida ochiq muloqotni rivojlantirish hamda soliq majburiyatlariga ixtiyoriy rioya etishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tajribalar tahlili O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar bilan ishlashda risklarga asoslangan raqamli monitoringni rivojlantirish, korporativ soliq komplaensi tizimlarini baholash hamda profilaktik hamkorlik mexanizmlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik soliq to'lovchilarni nazorat qilish tizimi tekshiruvlar sonini ko'paytirishga emas, balki soliq risklarini oldindan aniqlash, korporativ soliq boshqaruvini rivojlantirish hamda davlat va biznes o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Mazkur tajribalarni milliy soliq ma'muriyatchiligining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirgan holda joriy etish O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar ustidan soliq nazoratining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

2-jadval

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar nazoratini takomillashtirish bo'yicha amaliy yo'nalishlar

Xorijiy tajriba	O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati
AQShda qo'llanilayotgan Compliance Campaigns yondashuvi	Soliq nazoratini ommaviy tekshiruvlardan xavf darajasi yuqori bo'lgan sohalar va operatsiyalarga yo'naltirish
Kanadadagi kompleks korporativ audit modeli	Yirik korxonalar, ularning filiallari va o'zaro bog'liq shaxslar faoliyatini yagona tizim asosida baholash
Avstraliyadagi Justified Trust konsepsiyasi	Yirik soliq to'lovchilar uchun ishonch reytingi va soliq komplaensi darajasini joriy etish
Germaniyadagi ichki soliq nazorati tizimi	Korxonalarda Tax Control Framework elementlarini shakllantirish va ichki soliq nazoratini kuchaytirish
Fransiyadagi Cooperative Compliance modeli	Soliq organlari va biznes sub'ektlari o'rtasida doimiy maslahatlashuv hamda profilaktik hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish

2-jadval ma'lumotlari rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan institutsional yondashuvlar O'zbekiston



soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Xususan, AQShdagi *Compliance Campaigns* amaliyoti tekshiruvlarni risk darajasi yuqori bo'lgan sohalariga yo'naltirish orqali inson va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Kanadada qo'llanilayotgan kompleks korporativ audit modeli esa yirik kompaniyalar guruhlar, filiallar va o'zaro bog'liq shaxslarni yagona iqtisodiy tizim doirasida baholash orqali transfert narxlash hamda soliq bazasining sun'iy ravishda qisqartirilishi bilan bog'liq risklarni aniqlash samaradorligini oshiradi.

Avstraliya, Germaniya va Fransiya tajribasi soliq nazoratining profilaktik va hamkorlikka asoslangan modelini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Avstraliyadagi *Justified Trust* konsepsiyasi asosida yirik soliq to'lovchilar uchun ishonch reytingi va komplaens darajasini baholash tizimini joriy etish mumkin. Germaniyadagi *Tax Control Framework* talablari korxonalarning ichki soliq nazorati tizimini mustahkamlashga xizmat qilsa, Fransiya *Cooperative Compliance* modeli soliq organlari va biznes o'rtasida doimiy muloqot hamda oldindan maslahatlashuv amaliyotini rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvlarni milliy qonunchilik va raqamli soliq infratuzilmasi bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar ustidan nazorat samaradorligini oshirish, ixtiyoriy soliq intizomini mustahkamlash hamda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Soliq organlari tizimida yirik soliq to'lovchilar faoliyatini tahlil qilishga ixtisoslashgan analitik markaz tashkil etish taklif etiladi. Mazkur markaz tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar kesimida soliq risklarini prognoz qilish, tahliliy hisobotlar tayyorlash hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

2. Yirik korxonalarda soliq nazoratini xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlarga muvofiqlashtirish maqsadida OECD hamda IMF tavsiyalari asosida gorizontal monitoring, raqamli audit va risklarga asoslangan nazorat elementlarini milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilish taklif etiladi. Mazkur yondashuv mamlakat soliq tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va uni xalqaro ilg'or amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

3. Yirik korxonalarda soliq nazorati samaradorligini uzoq muddatli istiqbolda baholash maqsadida raqamli KPI tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur tizimda har bir nazorat tadbirining iqtisodiy samarasi, budjetga qo'shimcha tushumlar hajmi, profilaktik choralarning natijadorligi, soliq risklarining kamayish darajasi hamda soliq to'lovchilarning komplaens ko'rsatkichlari muntazam ravishda baholab borilishi lozim. Ushbu tizim soliq organlari faoliyatini natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etish, nazorat sifatini oshirish hamda davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi:** O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LexUZ) [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – LexUZ — Soliq kodeksining amaldagi matni
2. Шумпетер Й.А. **Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия** / Й.А. Шумпетер; под ред. В.С. Автономова. – М.: Эксмо, 2007. – 864 с.
3. Покровский А.К. **Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта:** учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2011. – 160 с.
4. Becker K.F. **The Informal Economy:** Fact Finding Study. – Stockholm: Swedish International Development Cooperation Agency (Sida), 2004. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – Sida — The Informal Economy
5. Аронов А.В., Кашин В.А. **Налоги и налогообложение:** учебное пособие. – М.: Магистр, 2007. – 576 с.
6. Жалонкина И.Ю. **Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации:** дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. – Томск, 2012. – 204 с. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026.
7. Андреева В.А. Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений // **Интерактивная наука.** – 2017. – № 4 (14). – С. 136–140.
8. Кузнецов А.Л. **Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект).** – 2016. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026.
9. Тошматов Ш.А. **Корхоналарни ривожлантиришда солиқларнинг роли.** – Тошкент: Фан ва технология, 2008.



10. **O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari.** – Rasmiy veb-sayt [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi
11. Baer K., Benon O.P., Toro J.R. **Improving Large Taxpayers' Compliance: A Review of Country Experience.** – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2002. – 59 p. – Occasional Paper No. 215. DOI: 10.5089/9781589061187.084. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – IMF — Improving Large Taxpayers' Compliance
12. OECD. **Compliance Management of Large Business Task Group: Experiences and Practices of Eight OECD Countries.** – Paris: OECD Publishing, 2012. – 76 p. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – OECD — Compliance Management of Large Business
13. OECD. **Co-operative Compliance: A Framework: From Enhanced Relationship to Co-operative Compliance.** – Paris: OECD Publishing, 2013. – 106 p. DOI: 10.1787/9789264200852-en. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – OECD — Co-operative Compliance: A Framework
14. OECD. **Co-operative Tax Compliance: Building Better Tax Control Frameworks.** – Paris: OECD Publishing, 2016. – 38 p. DOI: 10.1787/9789264253384-en. – [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – OECD — Co-operative Tax Compliance
15. Internal Revenue Service. **Large Business and International (LB&I) Division.** – United States Internal Revenue Service [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – IRS — Large Business and International Division
16. Internal Revenue Service. **Large Business and International Compliance Campaigns.** – United States Internal Revenue Service [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – IRS — LB&I Compliance Campaigns
17. Canada Revenue Agency. **International and Large Business Income Tax Audit and Examination.** – Government of Canada [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – Canada Revenue Agency — International and Large Business Audit
18. Australian Taxation Office. **Justified Trust and Tax Governance of Large Public and Multinational Businesses.** – Australian Government [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026.
19. Bundesministerium der Finanzen. **Anwendungserlass zur Abgabenordnung zu § 153: Berichtigung von Erklärungen.** – Berlin: Bundesministerium der Finanzen [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026. – Germaniya Federal moliya vazirligi — AEAO zu § 153
20. Ministère de l'Économie, des Finances et de la Souveraineté industrielle et numérique. **Partenariat fiscal à destination des grandes entreprises et des entreprises de taille intermédiaire (ETI).** – Paris [Elektron resurs]. – Murojaat sanasi: 03.09.2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>